

YURIDIK KOMMUNIKATSIYADA EKSTRALINGVISTIK VOSITALAR

Xujaniyazova Hilola Turayevna

Katta o'qituvchi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yuridik kommunikatsiyada ekstralingvistik vositalarning o'rni va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Sud diskursida nutqning mazmuni nafaqat til birliklari, balki kommunikativ vaziyat, institutsional maqom, protsessual tartib-qoidalar hamda verbal bo'lmagan vositalar orqali ham shakllanishi yoritiladi. Shuningdek, intonatsiya, pauza, mimika, temp kabi prosodik va kinesik vositalarning yuridik nutqdagi pragmatik ta'siri ko'rib chiqiladi. Maqolada yuridik nutqning hujjatiylik xususiyati, ya'ni nutqning protokollashtirilishi, audio-video qayd etilishi va keyingi instansiyalarda qayta talqin qilinishi ekstralingvistik omil sifatida baholanadi. Tadqiqot natijasida ekstralingvistik vositalar yuridik kommunikatsiyada ma'no hosil qiluvchi hamda normativ talqinni boshqaruvchi muhim tizimli omillar ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: yuridik kommunikatsiya, ekstralingvistik vositalar, sud diskursi, yuridik ritorika, institutsional maqom, verbal bo'lmagan vositalar, prosodika, kinesika, pragmatika, protokollashtirish, huquqiy nutq, kommunikativ vaziyat.

Yuridik nutqning ekstralingvistik vositalari deganda biz til birliklarining o'zidan tashqarida turgan, ammo nutqning ma'nosi, ta'sirchanligi va institutsional qonuniyligini belgilab beruvchi omillar majmuasini tushunamiz. Sud muhitida bunday vositalar, avvalo, kommunikativ vaziyatning qat'iy reglamentlanganligi bilan belgilanadi: nutq kim tomonidan, qaysi maqomda, qaysi protsessual bosqichda

va qaysi auditoriya oldida aytilgani uning talqiniga bevosita ta'sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, nutq egasining institutsional maqomi (sudya, prokuror, himoyachi), sud zalidagi rollar taqsimoti, murojaat va navbat qoidalari, vaqt limiti, protokolga kiritish tartibi kabi holatlar yuridik nutqning pragmatik chegaralarini belgilaydi.

Yuridik ritorikada ekstralingvistik omillar qatoriga, shuningdek, verbal bo'lmagan komponentlar ham kiradi: intonatsiya, pauza, temp, urg'u, ishora va mimika kabi prosodik va kinesik vositalar sud nutqida neytral bayonni saqlash yoki aksincha, dalilning ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin, biroq ular ham protsessual madaniyat va etiket bilan cheklangan holda amal qiladi.

Bundan tashqari, yuridik nutqning ekstralingvistik zaminiga hujjatiylik va yozma fiksatsiya omili kiradi: aytilgan nutqning protokollashtirilishi, audio-video qayd qilinishi, dalillar bilan bog'lanishi va keyinchalik apellyatsiya yoki kassatsiya bosqichida qayta o'qilishi nutqni "bir martalik" muloqotdan ko'ra, huquqiy oqibatga ega institutsional harakatga aylantiradi [4]. Shu ma'noda, yuridik nutqda ekstralingvistik vositalar faqat fon emas, balki ma'noni tashkil etuvchi va uning normativ talqinini yo'naltiruvchi tizimli omillar sifatida qaralishi lozim. Zamonaviy sud jarayonlarini kuzatish jarayonida sud ishtirokchilar nutqida ekstralingvistik vositalar, ayniqsa qo'l harakatlari, tartibni saqlash, eshitalishni ta'minlash va nutq navbatini boshqarishda amaliy vosita sifatida qo'llaniladi. Masalan, sudya zaldagi shovqinni to'xtatish uchun kaftni oldinga qaratib ko'tarishi mumkin, bu ishora "jim" degan ma'noni anglatadi va ko'pincha "zal tinchlansin» mazmunidagi ogohlantirish bilan mustahkamlanadi. Guvoh

yoki ishtirokchini yaqinroq chaqirishda sudya qo'lni o'ziga tomon imlab, "yaqinroq keling" degan signal beradi; bu ishora aytiladigan so'zni tejaydi va harakatni tezlashtiradi [5]. Agar gapirayotgan shaxs mikrofondan uzoqda tursa yoki yuzini chetga bursa, sud kotibi yoki sudya mikrofon tomon ishora qilib, «mikrofonga qarab gapiring» deb ko'rsatma berishi mumkin, bu esa nutqning texnik jihatdan to'g'ri qabul qilinishiga xizmat qiladi. Nutqni bo'lmaslikka oid signallar ham muhim: advokat gapirayotganda kimdir aralashsa, sudya qo'lini ko'tarib «to'xtang» ishorasini qiladi va «advokatning nutqini bo'lmang» deb tartib o'rnatadi. Demak, qo'l harakatlari sud nutqida so'zdan tashqari, ammo uning samaradorligi va rasmiyligini ta'minlaydigan institutsional boshqaruv vositasi hisoblanadi. Ingliz sud muhitida ham shunga o'xshash regulyativ ishoralar uchraydi: sudyaning qo'l ishorasi bilan zalni bosishga chaqirishi «Order in the court» mazmunini kuchaytiradi, «Please speak into the microphone» kabi ko'rsatmalar esa nutqni texnik jihatdan to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladi [6]. Demak, ekstralingvistik vositalar sud nutqida yordamchi fon emas, balki muloqotni tartibga soluvchi amaliy mexanizm bo'lib, ular orqali sud jarayonida intizom, navbat va eshitalish talablari ta'minlanadi.

Shuningdek, sud jarayonini kuzatishda biz, ayniqsa qoralovchi nutq aytilayotgan paytda, sudlanuvchining munosabati ba'zan so'z bilan emas, paralingvistik belgilar orqali sezilishi mumkinligi aniqladik. Masalan, prokuror ayblovni bayon qilayotganda sudlanuvchi og'zini qo'l bilan qisman to'sib qo'yishi, tomoq qirishi yoki yo'talga o'xshash harakat bilan qisqa tanaffus olishga urinishi ehtimoldan xoli emas degan xulosaga keldik. Bu esa ayrim hollarda ichki zo'riqish, ehtiyotkorlik yoki o'zini tiyib turish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, burin uchiga engil tegib qo'yish, burin atrofini ishqalash, quloqqa yoki bo'yinga qo'l olib borish, ko'zni ishqalash kabi mayda harakatlar ham kuzatilishi mumkin; bunday belgilarni ba'zan stressni boshqarishga qaratilgan avtomatik reaksiyalar sifatida tushuntirishadi, lekin bu talqin har doim ham bir ma'noli bo'lmaydi. Qoralovchi nutqning ayrim "og'ir" nuqtalarida tez-tez yutinish, labni yalash, qo'ldagi soat yoki uzukka qayta-qayta tegib turish, sun'iy tabassurga o'xshash ifoda yoki lablarni qisish orqali hissiyotni yashirishga urinish ham kuzatildi va bu ehtimoliy ko'rinishlardan sanaladi. Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, bunday belgilarni to'g'ridan-to'g'ri "yolg'on" yoki "aybni tan olish" bilan bog'lash metodologik jihatdan to'g'ri emas: ular xavotir, g'azab, adolatsizlikni his qilish, yoki oddiy fiziologik noqulaylik bilan ham izohlanishi mumkin [3]. Shu sababli, sudlanuvchining paralingvistik xulqini tahlil qilishda belgilarni kompleks tarzda, ular qaysi paytda paydo bo'lgani, qancha davom etgani, takrorlanishi va shaxsning individual odatlari bilan bog'lab baholash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, yuridik ritorikada ekstralingvistik vositalar oddiy "ishora" darajasida qolmaydi, balki protsessual tartibni ta'minlaydigan amaliy mexanizm sifatida ishlaydi. Sud nutqini tahlil qilishda lisoniy konstruksiyalar bilan bir qatorda ana shu nolisoniy harakatlarni ham hisobga olish zarur, chunki sud jarayonida ma'no faqat so'zda emas, tartib va boshqaruvda ham "ishlaydi".

Yuridik ritorikada ekstralingvistik vositalar deganda til tizimidan tashqari, biroq nutqning pragmatik samaradorligi va ishontirish potensialini belgilaydigan omillar majmuasi tushuniladi. Ularga, bir tomondan, verbal bo'lmagan signallar ishora, mimika, pauza, nutq sur'ati, intonatsiya va ovoz kuchlanishi kabi paralingvistik ko'rsatkichlar kirsam, ikkinchi tomondan, nutqning ijtimoiy-institutsional konteksti, notiqning maqomi va qiyofasi, vaziyatning protsessual parametrlari, auditoriya tarkibi va sud muhitining

reglamentlangan sharoiti kiradi. Mazkur omillar sud kommunikatsiyasida ahamiyatli funksiyalarni bajaradi: nutqiy aksentni kerakli nuqtalarga jamlaydi, bahs dinamikasini tartibga soladi, dalil bayonining qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatadi hamda nutqning emotsional-fonetik rejasini me'yoriy chegaralarda boshqaradi. Shu jihatdan, ekstralingvistik vositalar sud diskursida "qo'shimcha" unsur emas, balki huquqiy ritorikaning institutsional samarasini ta'minlovchi tizimli komponent sifatida baholanishi lozim.

REFERENCES:

1. Austin J. L. How to Do Things with Words – Oxford: Oxford University Press, 1962.
2. Searle J. R. Speech Acts – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
3. Fairclough N. Language and Power – London: Longman, 1989.
4. Van Dijk T. A. Discourse and Power – New York: Palgrave Macmillan, 2008.
5. Goffman E. Forms of Talk – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1981.
6. Matoesian G. Law and the Language of Identity – Oxford: Oxford University Press, 2001.